

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**



**EFFECTIVE WAYS OF ORGANIZING  
LEARNER CENTERED CLASSES  
IN ENGLISH LANGUAGE CLASSROOM**

**Xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy anjuman**

**MATERIALLARI TO'PLAMI**

**23 APREL , 2024**

yetkazadi, u yerda u ajoyib go'zallik lahzalarini boshdan kechirishi va zamonaviy hayotning ma'naviy bo'shlig'idan qochishi mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kurbonova, N. R., & Anvarova, U. J. F. (2023). THE ANALYSIS OF "BOAT STEALING" EXTRACT FROM "THE PRELUDE" BY WILLIAM WORDSWORTH. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(9), 356-360.
2. Kurbonova, Nodira Rozikovna, and Umidabegim Ja'farovna Anvarova. "WILLIAM WORDSWORTH AS THE FOUNDER OF ROMANTICISM AND HIS CONTRIBUTION TO ROMANTIC POETRY." *INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE "SCIENTIFIC ADVANCES AND INNOVATIVE APPROACHES"*. Vol. 1. No. 1. 2023.
3. M.H. Abrams "The Mirror and the Lamp: Romantic Theory and the Critical Tradition". Oxford University Press, 1971.
4. Richard Gravil, "Wordsworth's "I Wandered Lonely as a Cloud": A Study of its Composition, Publication, Reception and Influence", 2005
5. Rozikovna, Kurbonova Nodira, and Anvarova Umidabegim Ja'farovna. "The Analysis of "Lines Composed a Few Miles Above Tintern" by William Wordsworth." *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769)* 1.10 (2023): 332-334.

## JIN RIZNING "KENG SARGASSO DENGIZI" ASARIDA MUSTAMLAKACHILIK VA IRQIY MUAMMOLARINING IFODALANISHI

**Qurbonova Nodira Roziqovna**

f.f.f.d. BuxDU

[n.r.qurbonova@buxdu.uz](mailto:n.r.qurbonova@buxdu.uz)

**Xamdamova Maftuna Akbarovna**

Magistr, BuxDU

[m.a.xamdamova@buxdu.uz](mailto:m.a.xamdamova@buxdu.uz)

**Annotatsiya.** Ushbu maqola ingliz postmodernizmining yorqin vakillaridan biri bo'lgan Jin Riz qalamiga mansub “Keng Sargasso dengizi” asaridagi mustamlakachilik va irqiy munosabatlar tahliliga bag'ishlangan. O'sha davrda Angliya mustamlakasi bo'lgan Yamayka kontekstida qahramonlarning irqiy o'ziga xosliklari ularning hayotiga qanday ta'sir ko'rsatgani ayniqsa, bosh qahramon Antuanet Kosveyning kreol irqi bilan kurashi va keyinchalik oq mustamlakachilar va qora yamaykaliklar tomonidan chetlatilishiga e'tibor qaratadi. Bundan tashqari, u mustamlakachilikning individual psixika va ijtimoiy tuzilmalarga doimiy ta'sirini yoritishga qaratilgan bo'lib, ushbu mavzularning irq, o'ziga xoslikning dolzarbligini ta'kidlaydi.

**Kalit so'zlar:** mustamlakachilik, irqiy munosabatlar, postmodernizm, koloniyalar, avtobiografik asar, qullik

Ingliz postmodernizmining yorqin vakilasi Jin Rizning “Keng Sargasso dengizi” asari o'zida mustamlakachilik va irqiy munosabatlarni jamlagani va bu mavzularning qaharmonlar hayotiga ta'sirini keng yoritib bergan ijodkorlardan biri sanaladi. Aslida Jin Rizning o'zi ham Asar qahramoni Antuanetta kabi, kreol ya'ni otasi Uelslik, onasi esa Shotlandiyalik kreol bo'lgan va Yamaykada o'sgan. Shuning uchun ham hech qachon o'zini orolning tub aholisi bo'lgan qora tanlilarga mos kelmasligini bilgan, va orolda bolaligi o'tgani uchun inglizchada shevasi bilinib turgani tufayli Yevropaliklar tomonidan ham Angliyada xuddi chetdan kelgan odamdek qabul qilingan. Bu irqiy munosabatlarsa keyinchalik uning asarlarida o'z ifodasini topgan.

“ Keng Sargasso dengizi” uch qismli formatni o'z ichiga oladi, Antuanetta birinchi va uchinchi qismlarni, Rochester ya'ni, Antuanettaning eri esa ikkinchi qismni hikoya qiladi. Hikoyadagi bu o'zgarish, vaqt va makonning oldinga va orqaga harakatlanishi, avtobiografik asardan ancha farq qiladi. Antuanetta hikoya qiladigan qismda, Riz vaqtni hozirgi zamondan o'tmishga

o'tkazish uchun parchalanish deb nomlangan qurilmadan foydalanadi va Antuanettani yaratadi. "Keng Sargasso dengizi" "Jeyn Eyr"ga o'ziga xos javob sifatida yozilgan bo'lib, "Jeyn Eyr"dagi Berta qahramoni haqida hikoya qiladi. Jin Riz Jeyn Eyrning tugashidan norozi bo'lgani uchun Bertaning hayoti haqidagi hikoyani yozadi. "Keng Sargasso dengizi" filmidagi Antuanetta Kosvey "Jeyn Eyr" asaridagi Berta Meysonning versiyasidir. Ikkalasi ham janob Rochesterga uylangan. Riz romani orqali Antuanettaning tarixini o'rganib, Bertaning xarakteri uchun kontekstni ta'minlaydi. "Keng Sargasso dengizi" "Jeyn Eyr" qoldirgan bo'shliqlarni to'ldiradi va kreol madaniyati, Antuanetta tarbiyasi va uning jinnilikka tushishi haqida tushuntirish beradi. Rizning romanida Bertaning ya'ni, chortoqda qamalgan telba ayol, jabrdiyda va tashlandiq shaxs sifatida tasvirlanishi Bront asarida Bertaga javob sifatida xizmat qiladi. Jeyndan farqli o'laroq, Antuanettani hayotidagi muammolar mag'lub qiladi. U umidsiz yashaydi va yetuklikka erishmaydi. Jeyn-Eyrdagi Berta o'z joniga qasd qilish orqali o'z erkinligiga erisha ham, u aqlini yo'qotishdan boshqa hech narsaga erisha olmaydi. "Jeyn Eyr" dan farqli ravishda Riz o'z romanida Antuanetta obrazi orqali, mustamlakachilik va irqiy munosabatlarni yaqqol ko'rsatib beradi. Antuanettaning eri haqidagi voqeani o'tgan zamonda noma'lum shaxs aytib beradi va uning shaxsiyatiga haqiqiylik beradi. Hikoyadagi bu o'zgarishlar o'quvchilarga ikki asar o'rtasidagi madaniy va psixologik farqlarni tushunishga yordam beradi. Antuanettadagi irqiy izolyatsiya va patriarxal zulm qurboni ekanligi sababli jinnilik paydo bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Qullik rasman bekor qilingan bo'lsa ham, qaramlik kishanlari sobiq qullarni tark etmadi. Sobiq qul xizmatchilari va oq tanli ish beruvchilar o'rtasidagi dushmanlik qonuniy mulkchilikdan iqtisodiy qaramlikka o'tdi va majoziy qullikka aylandi. Yong'in olovi bunday qora tanli ishchilarning ekspluatatsion oqlarga qarshi noroziligini keskin bayon qiladi: *"Still they were quiet and there were so many of them I could hardly see any grass or trees. There must have been many of the bay people but I recognized no one. They all looked the same face repeated over and over ..."* - Antuanettaning

oilasi sobiq quldor bo'lgani uchun qora tanlilar ularni dushmani kabi ko'rishgan va bu ularning uyiga o't qo'yishiga olib keldi.

Qullik bekor qilingandan so'ng, ko'plab qora tanlilar oq tanlilarga xizmat qilishdan to'xtashdi:

*"...but the people here won't work. They don't want to work"* -ushbu fikrni janob meyson, ya'ni Annettning ikkinchi eri aytadi. Endi qullik yo'q ekan, kimdir ishlashi shart emas degan fikr hukmron bo'la boshladi. Moddiy istaklar va kapitalizmning kuchi hukmronlik qildi va o'tmish qadriyatlari, shu jumladan insoniyatga hurmat kamaydi degan fikrlar tarqala boshladi.

Shaxslararo munosabatlar ko'pincha pul kelishuvlariga asoslana boshlandi. Jins, terining rangi, ota-onasi va kelib chiqish joyi ularning jamiyatdagi mavqeiga ta'sir qildi. Ayollar erkaklarnikiga qaraganda pastroq sinf edi. Angliyalik oq tanlilar oq kreollardan ustunlik tuyg'usiga ega edilar. Yamaykadan bo'lmagan sobiq quldorlar, Yamaykaning qora tanli xalqi tomonidan nafratlanilgan:

*"...They hated us..."* - Antuanettaning bu so'zlari sobiq quldorlar va ularning oilasining Yamaykaning tub aholisi tomonidan qanchalik nafratlanishidan darak beradi.

Aralash irqiy odamlar qora va oq jamiyatlar orasidagi bo'shliqni to'ldirishdi va ota-onalaridek, har qanday joyni egallashdi. Turli darajalar va guruhlar o'rtasidagi almashinuvlar majburiy hurmat ostida bo'lgan bo'lsada, qo'rquv bilan yashashgan.

Roman birinchi shaxs tomonidan hikoya qilingan. Antuanetta va uning erining qalbi har bir insonning fikriga qarab o'zgaradi..Antuanettaning versiyasi Yamaykaning kreol aholisi nuqtai nazaridan olingan. Uning yozuvi empatiyani uyg'otadi va Karib dengizidagi qullikdan keyingi ozodlikning adolatsizligini aniq ta'kidlaydi. Uning ifodalashi juda aniq, shuning uchun ham o'quvchi xayolida voqealar aks etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

39.	The Expression Of Author Neologisms In "Harry Potter And Philosopher'S Stone" By Joanne Kathleen Rowling	Nazarova Gulbahor Pirmanovna Alimova Ferangizbonu Baxodur qizi	162
40.	Vilyam Vordsvortning "The World Is Too Much With Us" Sonetida Tabiat Tasvirining Aks Ettirilishi	Qurbonova Nodira Roziqovna  Anvarova Umidadbegim Ja'farovna	165
41.	Jin Rizning "Keng Sargasso Dengizi" Asarida Mustamlakachilik Va Irqiy Muammolarining Ifodalanishi	Qurbonova Nodira Roziqovna  Xamdamova Maftuna Akbarovna	169
42.	The Description Of Relationship Between Man And Nature In Robert Frost'S Poetry	Kurbonova Nodira Rozikovna	173